

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-son)**



**IJTIMOIY FANLAR  
SOCIAL STUDIES**

**JIZZAX VOHASI ETNIK GURUHLARI ORASIDA «MANG‘IT» URUG‘NING  
TUTGAN O‘RNI XUSUSIDA**

*Eshonqulov Umurzoq Absamat o‘g‘li  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
ijtimoiy-gumanitar fanlarda  
masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalqi tarkibidagi eng katta etnik guruhlardan biri mang‘it urug‘ining o‘rganilish tarixi, mang‘it atamasining kelib chiqishi, mang‘it urug‘ining shahobchalari, Jizzax vohasi bo‘ylab geografik joylashuvi bo‘ycha mulohazlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Urug‘, qabila, aymoq, elat, el, xalq, millat, etnoganez, etnik tarix, oq Mang‘it, och Mang‘it, qora Mang‘it, chala Mang‘it, boygundi Mang‘itlar temirxo‘ja, isoboy, ko‘sса, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg‘ali, mang‘it qozoq, o’n ikki cho‘qay, gala botir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay.

**О МЕСТЕ РОДА «МАНГЫТ» СРЕДИ ЭТНИЧЕСКИХ ГРУПП  
ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА**

**Аннотация.** В данной статье изложена история изучения одного из крупнейших этнических групп узбекского народа – рода мангытов, происхождение термина «мангыт», разветвления рода мангытов, а также рассмотрены их географическое расположение на территории Джизакского оазиса.

**Ключевые слова:** род, племя, аймак, народность, народ, hatsия, этногенез, этническая история, белые мангыты, светлые мангыты, черные мангыты, неполные мангыты, бойгунды-мангыты, темирходжа, исобой, куса, таз, корабайыр, бакырчи, кула, тамгалы, мангыт-казахи, двенадцать чокай, гала-батыр, бешкал, чобакчак, уз, уволай.

**THE ROLE OF THE "MANGHIT" CLAN AMONG THE ETHNIC GROUPS  
OF THE JIZZAKH OASIS**

**Annotation.** This article presents the history of the study of one of the largest ethnic groups within the Uzbek people – the Manghit clan, the origin of the term "Manghit," the branches of the Manghit clan, and considerations regarding their geographical distribution within the Jizzakh oasis.

**Keywords:** clan, tribe, aymak, ethnicity, people, nation, ethnogenesis, ethnic history, white Manghits, light Manghits, black Manghits, incomplete Manghits, Boigundi Manghits, Temirkhoja, Isoboy, Kosa, Toz, Korabayir, Baqirchi, Kula, Tamgali, Manghit Kazakhs, Twelve Chokay, Gala Batyr, Beshkal, Chobakchak, Uz, Uvolay.

**KIRISH.** O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. O‘zbekiston mustaqilligi va o‘zbek xalqining etnoma‘daniy jihatdan tiklanishi sharoitida uning milliy o‘zligini anglashini kuchaytirish uchun teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonning etnik rang-barangligida xalqning o‘z munosib o‘rnini aniq-ravshan idrok etishi katta ahamiyatga ega.<sup>5</sup>

Mustaqilik yillarda vatanimiz tarixiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda ayniqsa xalqimizing etnik tarkibi, o‘zbek xalqi kelib chiqishi, etnoganezi, urug‘ va qabilalar tarixi, tarkibi, tuzulishi, o‘zbek urug‘lari geografik jolashuvi kabi masalalarni o‘rganishga intilish xalqimiz orasida tabora ortib bormoqda. Dunyoda hech bir millat yagona bir urug‘ yoki qabiladan tashkil topagandek o‘zbek xalqi ham bundan mustosno emas.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** O‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari to‘g‘risidagi tarixiy manbalar xaqida to‘xtalganda, ularni shartli ravishda uchga bo‘lib ko‘rsatish mumkin. Bu tarixiy manbalarning birinchi qismiga – Sharq va asosan bugungi O‘zbekiston hududida yashab o‘tgan tarixiy shaxslar, olimlar va tarixchilar tomonidan yozilgan “Devoni lug‘otit turk”, “Jome-at tavorix”, “Ravzat-uz safo”, “Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima”, “Tarixi Abulxayirxon”, “Shayboniynoma”, “Abdullanoma”, “Tarixiy Muquumxoniy”, “Tarixi Abdulfayizzon”, “Tarixi Salotini mang‘itiya” kabi tarixiy manbalar kirsa, ularning ikkinchi va uchinchi qisimlariga akademik V.V.Bartold, akademik V.V. Radlov, N.A Aristov, professor N.I. Zarubin, V.V.Grigorev, G‘ozi Olim, A.Yu.Yakubovskiy, A.D. Grebenkin, N.V. Xanikov, A.P. Xoroshxin, N.R. Katanov, N.Ya. Bichurin, D.N. Logofet, A.Borns, V.M. Viyatkin, L.P. Potolov, I.I. Magidovich, M.G. Vaxobov, L.V.Oshanin, B.X. Karmisheva, K. Najimov, V.G. Moshkova, B. Axmedov, K. Shoniyo佐<sup>6</sup> kabi olimlar tomonidan yozilgan asarlarni kiritish mumkin.

Ushbu tadqiqot tarixiy manbalar, yozma va og‘zaki rivoyatlar, etnografik tadqiqotlar hamda arxiv materiallariga asoslangan. Xususan, o‘zbek xalqining shakllanishi bilan bog‘liq tarixiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va olimlar tomonidan o‘tkazilgan dala tadqiqotlari tahlil qilindi. Shuningdek, XIX-XX asr boshlaridagi statistik manbalaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Jizzax vohasida keng dashtlik va tog‘ oldi adirliklari mavjud bo‘lib, ular Nurota, Turkiston, Morguzar tog‘ tizmalari bilan chegaradosh. Ser suv Qili, Zominsuv, Ravotsoy, Sayxonsoy va Tuyatortar kabi tabiiy resurslar

<sup>5</sup> Shoniyo佐 K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.

<sup>6</sup> X.Дониёров. Ўзбек халқи шажара ва шевалари. Т.: - “Фан”, 1968. Б-14.

hududda o‘troq va yarim o‘troq aholining doimiy yashashi hamda xo‘jalik yuritishi uchun qulay sharoit yaratgan. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik doimiy hamda mavsumiy tarzda rivojlangan. Shuningdek, ko‘chmanchi chorvachilik bilan o‘troq dehqonchilikning uyg‘un rivojlanishi hududga ko‘plab etnik guruhlarning ko‘chib kelib, o‘rnashishiga zamin yaratgan.

Bizgacha etib kelgan, yozma manbalarga qaraganda o‘zbek elati dastlab 24, sungra 32, pirovardida 92 toifaga bo‘lingan<sup>7</sup>. Xususan XVII asrda ijod qilgan o‘zbek mumtoz adabiyoti yirik namoyondasi Turdi Farog‘iy ushbu urug‘larni birlikda inoqlika chorlab shunday deydi:

Tor ko‘ngullik beklar, manman demang,  
kenglik qiling,  
To‘qson ikki bo‘li (qarindosh) o‘zbek yurtidur,  
tenglik qiling.  
Birni qipchoqu xitoyu birni yuz,  
nayman demang,  
Qirqu yuz, ming son bo‘lub, bir xon  
oyinlik qiling<sup>8</sup>

Turkiy xalqlarning Markaziy Osiyoga so‘ngi eng yirik migratsiyasi<sup>9</sup> (lotincha: *migratio* — ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman) XVI-asrda Shoybonixon boshchiligida Dashti Qipchoq o‘zbeklari tomonidan amalga oshirilgan va buning natijasida Markaziy Osiyo xalqlarning etnik rang-barangligi oshib borgan.

Shayboniyxon Movarounnahrga qo‘sish tortib kelganda, uning lashkarida 92 qavm suvorisi xizmat qilgan<sup>10</sup>. Dashtiqipchoqdan Movarounnaxrga ko‘chib kelgan etnoslarning xammasi xam ko‘p sonli bo‘lavermagan. Ularning ayrimlarigina, masalan, qipchoq, saroy, qo‘nqiroq, yuz, ming, nayman, mang‘it, qitoylar boshqalarga nisbatan yirik etnik guruxlar edilar. Bularning xar birining soni 30-50 mingdan to 200 mingacha bo‘lgan bo‘lishi munkun<sup>11</sup>. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida qipchoqlar 270 ming atrofida bo‘lgan<sup>12</sup>.

Buxoro xoni Abdulloxon II tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida XVI asrda qurilgan Eski-Tuyatortar kanali ta’mirlandi. Natijada Zarafshon daryosidan kam suvli Sangzor daryosiga bevosita suv olib borish imkoniyati yaratildi. Bu esa Jizzax tumanining 17 ming hektar erini o‘zlashtirishga<sup>13</sup> sharoit tug‘dirib, mintaqada dehqonchilik rivojlanishiga zamin hozirladi. Sug‘orish tizimining yaxshilanishi natijasida yangi hududlarga o‘zbek etnosining turli guruhlari ko‘chib kelib joylashdi, natijada aholi zichligi ortdi. Bu jarayon nafaqat qishloq

<sup>7</sup> Bo‘riyev O. Usmonov M. O‘zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar - Samarqand 2008 – b-53

<sup>8</sup> Elmurodov N. Zarafshon vohasi O‘zbek xalqi etnik guruhlari - Smarqand 2008: B. 4.

<sup>9</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 506-b

<sup>10</sup> Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 271-b

<sup>11</sup> Shoniyofov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 414.

<sup>12</sup> Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 275-b

<sup>13</sup> Болтаев А. Ўзбекистоннинг XX аср бошидан хозирга қадар сугорма дехқончилик маданияти тарихи (Сирдарё ва Жиззах воҳалари мисолида) Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация Қарши – 2022 6-30

xo‘jaligining rivojlanishiga, balki hududning iqtisodiy ahamiyatining oshishiga ham xizmat qildi.

Movarounnahrga ko‘chib kelgan etnoslarning eng yiriklaridan biri, mang‘it urug‘idir, Mang‘itlar XIII-asrda Dashti Qipchoqda, katta bir qismi esa Volga va Ural daryolari oralig‘ida yashashgan<sup>14</sup>. Oltin O‘rda xonligining emirilishi natijasida Astraxan, Qozon, Qrim xonliklari va Mang‘itlar ulusi paydo bo‘ldi. Xuddi shu davrda Abulxayrxon davlati ham tashkil topdi<sup>15</sup>.

O‘zbekiston hududida, 1923—1926 yilgi Malumotiga ko‘ra, Mang‘itlarning umumiyo ni 130 mingdan ortiq kishi. Shundan Buxoro xonligi hududida (100 ming kishi), Buxoro vohasi va Qarshi atrofida (44 ming kishi), Zarafshonning quyi oqimida (8 ming kishi) o‘rtta oqimida (10 ming kishi), Chorjo‘y tumanida (11 ming kishi), Jizzaxda (2600 kishi), Xorazmda (10 ming kishi) yashagan. Mang‘itlar qoraqalpoqlar va Shimoliy Kavkazdagi no‘g‘aylar tarkibida ham bo‘lgan, bir qismi esa Shimoliy Afg‘onistonda yashagan. O‘zbekistonda yashovchi Mang‘itlarlar bir qancha yirik va mayda urug‘larga bo‘lingan. Eng yiriklari: oq Mang‘it, och Mang‘it, qora Mang‘it, chala Mang‘it, boygundi Mang‘itlar Bulardan tashqari temirxo‘ja, isoboy, gaulak, ko‘sса, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg‘ali, mang‘it qozoq, o‘n ikki cho‘qay, gala botir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay va boshqa mang‘itlarga bo‘linadi.

Mang‘itlarlar Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. 1753—1920 yilargacha Buxoroni idora qilib kelgan xonlar Mang‘itlarning to‘q urug‘idan bo‘lgan, shu sababli xonlikda katta imtiyozlarga ega edilar. Qipchoqlar ta‘siri ostida o‘z tillarini unutib, turk-qipchoq tilini qabul qilganlar.

O‘zbekiston hududiga ko‘chib kelganlar. Qadimdan dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan o‘zbeklarning ta‘siri ostida Mang‘itlarning bir qismi asta- sekin o‘troqlashib borgan, bir qismi esa XIX-asar. oxiri va XX-asrning boshlariga qadar yarim o‘troq holda yashab, chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Ular qorako‘l va jaydari qo‘ylarni boqishgan. Mang‘itlar dehqonchilik, hunarmandchilik gilam (uzun patli gilam — julkirs mashhur bo‘lgan), matolar, bo‘z, alacha, qalami , bilan shug‘ullangan<sup>16</sup>.

Mang‘itlar Buxoro va Qashqadaryoda xal qiluvchi rol o‘ynab kelgan. Buxoro xonlari mang‘itlardan chiqan. Akademik V. V. Radlov “Zarafshonning Shimoliy sharqida yashovchi turkiy qabilalariing afsonalari” degan ishida Mang‘it bilan Kenagasning aka-uka bo‘lganligi xaqqidagi afsonani bergen. Shunday gapni A. P. Xoroshxin xam o‘zining “Turkiston o‘lkasiga taalluqli maqolalar to‘plami” degan asarining oxirida keltirgan. Bu afsonaning qanchalik to‘g‘ri ekanligi to‘grisida bir nima deyish qiyin, chunki kenegas jangovor qabila sifatida mang‘itlarga doimo opiozitsiyada bo‘lgan, Shevalar masalasiga kelganda, ularning shevalari orasida farq bor, Masalan, Kenagaslarning shevalari adabiy tilimizga ko‘p jihatdan yaqin tu rishi bilan

<sup>14</sup> [O‘zME](#). Birinchi jild M xarfi. Toshkent, 2000-yil 193-b

<sup>15</sup> Elmurodov N. Zarafshon vohasi O‘zbek xalqi etnik guruhlari – Smarqand 2008: B. 11.

<sup>16</sup> [O‘zME](#). Birinchi jild M xarfi. Toshkent, 2000-yil 193-b

xarakterlansa, mang‘itlarning shevalari asosni qipchoq xususiyatlarini saqlab qolganliklari bilan xarakterlanadi. Lekin ayrim joillardagi mang‘ritlarning shevalari (masalan, Beshkentdag‘i mang‘itlari shevasi, Buxoro atrofidagi Gijduvon tumanning |mangiton qishlogidagi mang‘itlarning shevalari) katta o‘zgarishlarga uchrab, o‘zining dastlabki xolatidaya juda uzoqlashib ketgan.

Mang‘itlarning uchga (oq mang‘it, to‘q mang‘it va qora mang‘it) bo‘linishi bizga ma’lum. N. V. Xanikovning 1843 yilda nashr qilingan Buxoro xonligining tafsilotlari degan kitobida ham mang‘itlarning uchta katta bo‘lakka bo‘linishi aytildi. Lekin D. G Vorovskiyning “Muxammad Yaqub Buxoriyning “Gulxan al mulk” degan kitobi” nomli dissertatsiyasining ilovasida mang‘itlar 6 ta katta bo‘lakka (urug‘ga.) bo‘lib ko‘rsatilgan, Lekin bu bo‘limlardagi Qurama va uch urug‘lar singari, xususan qurama bulimidagi, har duri, qora qo‘ng‘iroq, eroni va cho‘lkoni kabi urug‘lrning mang‘itga qo‘shilishiga ishonish qiyin<sup>17</sup>

XX-asr boshlaridagi statisik malumotlarga qaraganda Jizzax uyezdida 2600 atrofida Mang‘itlar yashashgan. Mang‘itlar Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Ilonchi, Osmonsoy, Deriston, Yomchi, Sayyod, Osmon qishloqlarida, xususan, Ustuxon cho‘lidan to Og‘zikentgacha bo‘lgan qishloqlarda tarqoq holda joylashganlar<sup>18</sup>. Forish mang‘itlari asosan ikkita katta qavmga bo‘linganlar. Bular «qirlik» hamda «soylik»lar deb ataladi. Qirliklar odinasariq, shotolib, oqaat va soyliklar-xo’jakorson, mansur, jalmat, qurbanaji, chuli kabi urug‘-qavmlaridan iborat bo‘lganlar .

XX asr boshlarida barcha mintaqalarda aholi orasida nihoyasiga yeta boshlagan o‘troqlashish jarayonlari natijasida mang‘itlarning asosiy guruhlari, jumaladan, qirliklar chorvachilik bilan birga kosibchilik hamda dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lganlar, soyliklar esa dehqonchilikda soy bo‘ylarida asosan uzum, donli ekinlar yetishtirib savdo bilan shug‘ullanganlar.

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkunki qadimiy xalqlardan biri bo‘lgan o‘zbeklar juda ko‘p etnik guruhlardan tashkil topgan. Tarixiy manbalarda o‘zbeklar 92 yirik urug‘dan iborat ekanligi qayd etib o‘tilgan bo‘lib bu urug‘lar o‘z navbatida yirik shaxobchalarga, shaxobchalar yana mayda bo‘laklarga, bo‘laklar to‘plarga, to‘plar ota va sulolalarga bo‘linib ketadi. Maqolamizning xotimasida shuni alohida ta’kidlab o‘tmoqchimizki , xalqimizning etnik guruhlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning etnik tarixini o‘rganib, yoshlarimizni ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini bilan yoritib berish bugunning dolzarb vazifasidir.

## **ADABIYOTLAR VA MANBAALAR RO‘YXATI**

1. Shoniyofov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 506-b

<sup>17</sup> Doniyorov X, O‘zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. - В. 90.

<sup>18</sup> Толипов Ф. Общинные традиции в семенной жизни населения Нуратинского оазиса (конец XIX-первая половина XX вв) Автореферат канд.ист.наук.Т., 2006. С 13-14.

3. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 271-b
4. Shoniyofov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 414.
5. Norboyev.N O‘zbek elining qabila va urug‘lari xaqida Toshkent 1997-y B-66
6. Doniyorov X, O‘zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. – B. 89.
7. Elmurodov N. Zarafshon vohasi O‘zbek xalqi etnik guruhlari - Smarqand 2008: B. 11
8. Bo‘riyev O. Usmonov M. O‘zbeklar: etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlar - Samarqand 2008 – b-53
9. Толипов Ф. Общинные традиции в семенной жизни населения Нуратинского оазиса (конец XIX-первая половина XX вв) Автореферат канд.ист.наук.Т.,2006. С 13-14.
10. Болтаев А Ўзбекистоннинг XX аср бошидан нозирга қадар суг‘орма деҳқончилик маданияти тарихи (Сирдарё ва Жиззах воналари мисолида) Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация Қарши – 2022 б-30